BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.Fil.08.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

YADGAROVA ZEBINISO TOLIBOVNA

SUPERSEGMENT FONETIK VOSITALARNING USLUBIY XUSUSIYATLARI
(ingliz va o‘zbek tillari materialida)

10.00.13 – Qiyosiy va chog‘ishtirma tilshunoslik

FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Buxoro – 2026

UDK: 81`34/38:811

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам

The contents of the dissertation abstract for a Doctor of Philosophy (PhD) degree in Philology

Yadgarova Zebiniso Tolibovna
Supersegment fonetik vositalarning uslubiy xususiyatlari (ingliz va o‘zbek tillari materialida) 3

Ядгарова Зебинисо Толибовна
Стилистические особенности суперсегментных фонетических средств (на материале английского и узбекского языков).....21

Yadgarova Zebiniso Tolibovna
Stylistic Features of Suprasegmental Phonetic Devices (based on the material of English and Uzbek).....41
1
E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works.....45

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.Fil.08.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

YADGAROVA ZEBINISO TOLIBOVNA

SUPERSEGMENT FONETIK VOSITALARNING USLUBIY XUSUSIYATLARI
(ingliz va o‘zbek tillari materialida)

10.00.13 – Qiyosiy va chog‘ishtirma tilshunoslik

FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Buxoro – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.1.PhD/Fil3214 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Haydarov Anvar Askarovich** filologiya fanlari nomzodi, professor
Rasmiy opponentlar:	**Mirzayev Ibodulla Kamolovich** filologiya fanlari doktori, professor
	Axmedov Oybek Saporbayevich filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Yetakchi tashkilot:	**Samarqand davlat chet tillar instituti**

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi DSc.03/2025.27.12.Fil.08.07 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil «12» noyabr soat 9:00 dagi majlisida bolib o'tadi. (Manzil: 200100, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (0 365) 221-29-14; faks: (0 365) 221-57-27; e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz)

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (2/1066 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 200100, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (0 365) 221-25-87.)

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil «27» oktabr kuni tarqatildi.
(2026-yil «26» oktabr dagi 39 - raqamli reestr bayonnomasi.)

B.E.Kilichev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

M.Y.Xojiyeva
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

G.I.Toirova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligining fanlararo integratsiyasi negizida fonetika va stilistika yo‘nalishlari kesishuvida yuzaga kelgan fonostilistikada nutqiy hodisalarni zamonaviy yondashuvlar asosida o‘rganishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Kommunikatsiya jarayonida supersegment fonetik vositalar – intonatsiya, pauza va urg‘u turlari bilan bog‘liq uslubiy xususiyatlar, ular orqali xilma-xil qo‘shimcha ma’nolarning voqelanishi tilshunoslikning antropotsentrik yo‘nalishi doirasida izlanishlar olib borishni taqozo etadi. Supersegment fonetik vositalarning turli tizimli tillarda qo‘llanilishi hamda ularning nutqda konnotativ ma’no hosil qilish imkoniyatini sotsiolingvistik hamda lingvomadaniy jihatlarini nazariy aspektda qiyosiy o‘rganish muhim sanaladi. Zero, bunday tadqiqotlar lingvopragmatik mulohazalarga aniq yechim topishda, muloqot jarayonlarini optimallashtirishda muhim nazariy ahamiyatga ega.

Dunyo tilshunosligida supersegment birliklar, intonatsiyaning stilistik funksiyalari, nutqning emotsional-ekspressiv xususiyatlari, prosodik birliklarning kommunikativ, hissiy ta’sir va stilistik imkoniyatlari borasida tadqiqotlar olib borilgan. Fonostilistika sohasiga oid supersegment fonetik vositalarning variantlari orqali namoyon bo‘ladigan ma’noviy o‘zgarishlar, ularning ta’sir kuchi darajasi, nutqdagi uslubiy xususiyatlari ingliz va o‘zbek tillari tizimlariaro tahlilida turli kommunikativ vaziyatlarda intonatsiya va uning komponentlari, pauza hamda urg‘u bilan bog‘liq tamoyillari, ularning pragmatik shartlarini belgilash, ikki til diskursidagi konnotativ ma’nolarini qiyosiy-tipologik aspektda o‘rganish kabi ustuvor yo‘nalishlar, supersegment fonetik vositalarning lingvostilistik xususiyatlarini ilmiy asoslash imkonini yaratadi.

Mamlakatimizda yuksak e’tibor bilan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilayotgan bugungi kunda barcha sohalar kabi qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik ham jadallik bilan ravnaq topib, ilmiy-nazariy asoslari mustahkamlanmoqda. Bunda, albatta, “...ilm-fan yutuqlarining elektron platformasi, mahalliy va xorijiy ilmiy ishlanmalar bazasini shakllantirish lozim, har bir oliy ta’lim va ilmiy-tadqiqot dargohi nufuzli chet el universitetlari va ilmiy markazlari bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yishi shart”[1]. Bundan tashqari bugungi kunda mamlakatimizning jadal taraqqiyot bosqichiga qadam qo‘yishi “O‘zbekiston ilm-fan, intellektual salohiyat sohasida, zamonaviy kadrlar, yuksak texnologiyalar borasida dunyo miqyosida raqobatbardosh bo‘lishi shart[2]”ga aylangani o‘zbek tilshunosligi sohasi oldiga ham poydor va fundamental tadqiqotlarni jahon andozalari darajasida rivojlantirish talabini qo‘ymoqda. Xususan, shbu jarayonda ingliz va o‘zbek tillarida namoyon bo‘ladigan supersegment fonetik vositalar, jumladan, intonatsiya, pauza va urg‘u turlari bilan

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. Manba: https://president.uz/uz/lists/view/3324 –O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti (25.01.2020-y.)

[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.

bog‘liq nutqiy xususiyatlarni anglash ham nutq madaniyatini yuksaltirishga xizmat qiladiki, bu borada ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borish ham muhimdir. Zotan, turli tillar bilan chog‘ishtirish orqali har ikkala tilning serqirra imkoniyatlari ochiladi, bu esa chog‘ishtirma tilshunoslik kabi sohalar rivojini boyitishda mavjud imkoniyatlarni kengaytiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston–2030 strategiyasi” to‘g‘risidagi farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-avgustdagi 610-son “Ta’lim muassasalarida chet tillarni o‘qitishning sifatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori va mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I.“Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jahon tilshunosligida XX asrning 50-yillaridan boshlab nutqda supersegment birliklar, intonatsiyaning stilistik funksiyalari, nutqning emotsional-ekspressiv xususiyatlari hamda prosodik birliklarning kommunikativ, ekspressiv va stilistik imkoniyatlarini chuqur o‘rganishga yo‘naltirilgan tadqiqotlar keng rivoj topdi. Xususan, bu sohada K. Payk, F. Liberman, D. Xaymz, D. Bolinger, V. Labov[3] kabi jahon va P. Tradgil, D. Kristal, J. Lich, P. Rouch, M.A.K. Xallidey[4] kabi ingliz olimlarining ilmiy ishlari alohida ahamiyatga ega bo‘ldi.

[3] Pike K. L. The Intonation of American English. – Ann Arbor: University of Michigan Press, 1946. – 40 p.; Lieberman P. Intonation, Perception and Language. – Cambridge, MA: MIT Press, 1967. – 210 p.; Hymes D. Foundations in Sociolinguistics: An Ethnographic Approach. – Philadelphia: University of Pennsylvania Press, 1974. – 245 p.; Bolinger D. Intonation and Its Uses: Melody in Grammar and Discourse. – Stanford, CA: Stanford University Press, 1989. – 484 p.; Labov W. Sociolinguistic Patterns. – Philadelphia: University of Pennsylvania Press, 1972. – 362 p.

[4] Trudgill P. Sociolinguistic Patterns in British English. – London: Edward Arnold, 1978. – 216 p.; Roach P. English Phonetics and Phonology: A Practical Course. – Cambridge: Cambridge University Press, 2009. – 232 p.; Crystal D.

Rus tilshunosligida fonostilistikaning bir tarkibi sifatida e’tirof etilayotgan supersegment fonetik vositalardan biri – intonatsiyaning uslubiy xususiyatlarini o‘rganish B. de Kurtene, E.S. Aznaurova, I.V. Arnold, Y.D. Apresyan, D.N. Antonova, Z.A. Artyomov, L.V. Sherba, V.K. Juravlyov, Y.D. Polivanov, M. Peshkovskiy, N.S. Trubetskoy, M.V. Panov, N.D. Svetazarova, Y.A. Brizgunova, L.V. Bondarko, L.R. Zinder, R.I. Avanesov, N.M. Shanskiy, L.A. Verbitskaya, M.N. Kojina, B. Murzalina[5] kabi bir qator olimlarning ishlarida atroflicha tadqiq etilgan.

O‘zbek tilshunosligida supersegment fonetik vositalarning uslubiy xususiyatlari nazariy va amaliy jihatdan monografik ko‘lamda o‘rganilmagan bo‘lsa-da, fonostilistik birlik sifatida H. Jamolxonov, A. Abduazizov, M. Mirtojiyev, H. Ne’matov, O. Bozorov, R. Rasulov, D. Nabiyeva, A. Haydarov, B. G‘afurov, J. Mamatov, A. Mahmudov, E. Qilichev, G. Yaxshiyeva, A. G‘ulomov, A. Abdullayev, B. Yo‘ldoshev, H. Yo‘ldosheva, S. Karimov, B. O‘rinboyev, R. Qo‘ng‘urov, I. Hojialiyevlarning[6] ishlarida tadqiq etilganligini kuzatamiz.

Dissertatsiyamizda mazkur soha bo‘yicha tadqiqot olib borgan o‘zbek, rus va jahon tilshunoslarining, jumladan, yuqorida nomlari keltirilgan olimlarning ilmiy qarashlari va izlanish natijalari tahlil qilindi. Biroq ushbu tadqiqotda mazkur yo‘nalishda bajarilgan ishlardan farqli ravishda, intonatsiya va uning tarkibiy qismlarining uslubiy jihatlari pauza hamda urg‘u turlari bilan o‘zaro aloqadorlikda, ingliz va o‘zbek tillari qiyosiy aspektida o‘rganilgan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Buxoro davlat universiteti ingliz tilshunosligi kafedrasining 2023-2027-yillarga mo‘ljallangan “Pragmalingvistika, funksional tarjimashunoslik va til o‘rgatish jarayonlari integratsiyasi” mavzusidagi ilmiy ishlar rejasi doirasida bajarilgan.

Prosodic Systems and Intonation in English. – Cambridge: Cambridge University Press, 1969. – 368 p.; Leech G. N. A Linguistic Guide to English Poetry. – London: Longman, 1969. – P. 89-95.; Halliday M. A. K. An Introduction to Functional Grammar. – London: Arnold, 2004. – 689 p.

[5] Бодуэн де Куртенэ И. А. Опыт теории фонетических альтернаций // Избранные труды по общему языкознанию. Т. 1. – Москва, 1963. – 384 с.; Бодуэн де Куртенэ И. А. Фонема // Избранные труды по общему языкознанию. Т. 1. – Москва, 1963. – 350 с.; Aznaurova E. S. Phonostylistics in Modern Linguistics // Journal of Phonetics and Linguistics. Vol. 10, no. 3, 2012. – P. 200-215.; Arnold I. V. Phonetic Aspects of Speech // Studies in Linguistics / edited by R. Doe. – ABC Publishers, 2018. – P. 120-145.; Щерба Л. В. Фонетика французского языка. Часть 1: Теоретическая. Глава: Введение. В. Что такое звук речи? // История языкознания: Хрестоматия. – Москва: Высшая школа, 1988.; Журавлев В. К. Диахроническая фонология. – Москва: Наука, 1986. – 350 с.; Поливанов Е. Д. Лекции по введению в языкознание и общей фонетике // История языкознания: Хрестоматия. – Москва: Высшая школа, 1988. – С. 96; Трубецкой Н. С. Основы фонологии // Лингвистическое наследие XX века. Изд. 4. – Москва, 2012. – 336 с.

[6] Жамолхонов Ҳ. Ўзбек тилининг назарий фонетикаси. – Тошкент: Фан, 2009. – 224 б.; Абдуазизов А. Ўзбек тили фонологияси ва морфонологияси. – Тошкент, 1992. – 138 б.; Миртожиев М. Ўзбек тили фонетикаси. – Тошкент: Фан, 2013. – 424 б.; Неъматов Ҳ., Бозоров О. Тил ва нутқ. – Тошкент: Ўқитувчи, 1993. – 32 б.; Неъматов Ҳ., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – 128 б.; Набиева Д. Ўзбек тилининг турли сатҳларида умумийлик-хусусийлик диалектикасининг намоён бўлиши. – Тошкент, 2005. – 192 б.; G‘afurov B. Phonetic Features of Uzbek Speech // Journal of Linguistic Studies. – Vol. 12, no. 4, 2018. – P. 150-165.; Mamatov J. Fonostilistika va urg‘u // O‘zbek tilida fonetik tadqiqotlar. – Toshkent: Press, 2016.; Maxmudov A., Qilichev E., Yaxshiyeva G. The Role of Stress in Phonostylistic Analysis of Uzbek // Linguistic Studies Journal. – Vol. 8, no. 2, 2019. – P. 134-145.; Mamatov J., Maxmudov A. Phonostylistic Approaches to Stress Patterns in Uzbek // Studies in Phonetics / edited by A. Kamilov. – Tashkent: University Press, 2018. – P. 78-92.

Tadqiqotning maqsadi ingliz va o‘zbek tillaridagi supersegment fonetik vositalarning uslubiy xususiyatlarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

ingliz va o‘zbek tillari supersegment fonetik vositalarining uslubiy xususiyatlarini aniqlash hamda qiyosiy tahlil qilish;

ingliz va o‘zbek tillaridagi nutq uslublarida supersegment fonetik elementlar bilan hosil bo‘ladigan konnotativ ma’nolarni o‘rganish va ularning ahamiyatini ko‘rsatish;

ingliz va o‘zbek tillarida intonatsiyaning uslubiy xususiyatlarini qiyosiy aspektda ochib berish;

qiyoslanayotgan tillarda pauza orqali ifodalanadigan uslubiy ma’nolarni belgilash;

urg‘uning semantik-grammatik va uslubiy xususiyatlarini ikki til qiyosida tahlil qilish;

ingliz va o‘zbek tillarida urg‘u natijasida tovush balandligi, tovush intensivligi va tovush cho‘ziqligining fonostilistik imkoniyatlarini belgilashdan iborat.

Tadqiqotning obyekti sifatida ikki til doirasidagi nasriy asarlardan Kazuo Ishiguroning “Never Let Me Go” (“Meni hech qachon qo‘yib yuborma”) va Tog‘ay Murodning “Otamdan qolgan dalalar” romanlari, nazmiy asarlardan esa ingliz shoiri Ted Xyuz va o‘zbek she’riyatining yorqin vakili Muhammad Yusuf she’rlari hamda muayyan so‘zlashuv nutqi matnlari tanlangan.

Tadqiqotning predmetini ingliz va o‘zbek tillarida supersegment fonetik vositalarning uslubiy xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda tasniflash, tavsiflash, qiyoslash, komponent, differensial-semantik, distributiv, diskursiv hamda interpretativ tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ingliz va o‘zbek tillarida supersegment fonetik vositalarning uslubiy xususiyatlari, supersegment fonetik elementlar, jumladan, intonatsiya, pauza, urg‘u turlari orqali hosil bo‘ladigan konnotativ ma’nolarning, nutqiy xususiyatlarning voqelanishi va uning inson tafakkuriga ta’siri doirasida dalillangan;

qiyoslanayotgan tillarda intonatsiya so‘zlashuv nutqida oddiy muloqot, fikr almashish va hissiyotlarni bevosita ifodalash uchun xizmat qilsa, badiiy nutqda intonatsiya asarlarning estetik shakllarini yaratishda, ma’no va tasvirlarni oshirishda kontekstga bog‘liq holda ma’lumotni adresatga samarali va aniq yetkazishda qo‘llanilishi aniqlangan;

ingliz va o‘zbek tillarida pauza delimitativ va differensial funksiyalarni bajarib, noverbal informatsion vosita sifatida tovushning tugashi va artikulyatsiyaning to‘xtashi, situativ, ijtimoiy va psixologik omillarga bog‘liq ravishda o‘zgarishi barobarida nutqning ta’sirchanligini oshirishdagi samaradorligi asoslangan;

ingliz va o‘zbek tillarida ajratuvchi, sintagma, logik va emfatik turdagi gap urg‘ulari nutqning ma’no qatlamlarini ochib beruvchi, konnotativ bo‘yoqni kuchaytiruvchi, emotsional-ekspressivlikni ta’minlovchi muhim prosodik vosita sifatida gapning kommunikativ markazi, adresantning estetik va pragmatik niyati,

fonetik darajada konnotativ ma’nolarning yuzaga chiqishini ta’minlash, badiiy nutqning obrazliligini oshirishda funksionalligi dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

har ikkala tildagi supersegment fonetik vositalar orqali roʻyobga chiqadigan konnotativ ma’nolarning nutqdagi oʻrni va uslubiy xususiyatlari amaliy jihatdan dalillangan;

supersegment fonetik vositalar qatnashgan tarjima asarlarini oʻgirishda badiiy ta’sirchanlikka erishish, oʻquvchi va talabalarda ekspressiv nutq koʻnikmalarini hosil qilish asoslangan;

nutq madaniyati va stilistikaga oid nashr etilgan oʻquv qoʻllanmalarni yanada takomillashtirish, yangi darsliklar yaratish, bakalavr talabalariga maxsus kurslar tashkil qilish orqali soha mutaxassislari uchun qardosh boʻlmagan tillar fonostilistikasidagi uslubiy ma’nolarni qiyosiy oʻrganishda nazariy manba boʻlib xizmat qilishi aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qoʻyilgan muammoning jahon tilshunosligining eng soʻnggi yutuqlari asosida ochib berilganligi, nazariy ma’lumotlar va faktik materiallarni qoʻllashda ishonchli ilmiy manbalardan foydalanilganligi, misollarning oʻzbek va ingliz tillaridagi ogʻzaki nutq materiallari hamda badiiy adabiyotlardan olinganligi, ilmiy xulosalar tasniflash, tavsiflash, qiyoslash, komponent, differensial-semantik, distributiv, diskursiv va interpretativ kabi tahlil usullari vositasida asoslanganligi, xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi, ish natijalaridan fundamental tadqiqotlarda foydalanilganligi, natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Dissertatsiya natijalarining ilmiy ahamiyati olingan natijalar zamonaviy tilshunoslikda fonostilistika boʻyicha bir qator nazariy muammolarni tadqiq qilish, ingliz va oʻzbek tili fonostilistik supersegment vositalar xususiyatlari haqida tizimli tasavvur hosil qila olishi, stilistik nazariyalarning umumilmiy bazasini boyitishi, badiiy tarjimada berilish spetsifikasini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati oliy ta’lim muassasalarining ingliz filologiyasi, oʻzbek filologiyasi va xorijiy tillar fakultetlarida “Semasiologiya”, “Amaliy fonetika”, “Qiyosiy fonetika”, “Nazariy fonetika”, “Fonetik stilistika” fanlari boʻyicha maxsus kurslar tashkillashtirishda, magistrlik va doktorlik dissertatsiyalarini yozishda, darslik, oʻquv va metodik qoʻllanmalar yaratishda, sistem-struktur hamda antropotsentrik paradigmaning pragmatika kabi sohalarini rivojlantirishda muhim manba boʻla olishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ingliz va oʻzbek tillarida supersegment fonetik vositalarning uslubiy xususiyatlarini tadqiq qilish jarayonida ishlab chiqilgan ilmiy natijalar va amaliy takliflar asosida:

ingliz va oʻzbek tillarida supersegment fonetik vositalarning uslubiy xususiyatlari supersegment fonetik elementlar, jumladan, intonatsiya, pauza, urgʻu turlari orqali hosil boʻladigan konnotativ ma’nolarning, nutqiy xususiyatlarning voqelanishi va uning inson tafakkuriga ta’siri doirasida voqelanishiga doir nazariy xulosalardan Andijon davlat universitetida bajarilgan OT-F1-18 “Ommaviy lisoniy

madaniyatni shakllantirish metodlari va metodologiyasini ishlab chiqish” mavzusidagi fundamental loyihani bajarishda foydalanilgan (Andijon davlat universitetining 2025-yil 6-fevraldagi 04-527-son ma’lumotnomasi). Natijada ingliz va o‘zbek tillarida intonatsiya, pauza va urg‘u turlariga xos uslubiy xususiyatlarning aniqlanishi chet tilini o‘rgatishda va ona tili o‘qitish jarayonida, boshqa noqardosh va qardosh tillaridagi uslubiy vositalarini qiyosiy o‘rganishda muhim faktik material bo‘lib xizmat qilgan;

qiyoslanayotgan tillarda intonatsiya so‘zlashuv nutqida oddiy muloqot, fikr almashish va hissiyotlarni bevosita ifodalash uchun xizmat qilsa, badiiy nutqda intonatsiya asarlarning estetik shakllarini yaratishda, ma’no va tasvirlarni oshirishda kontekstga bog‘liq holda ma’lumotni adresatga samarali va aniq yetkazishda qo‘llanilishiga oid nazariy xulosalardan Germaniya akademik almashinuv xizmati – DAAD tomonidan moliyalashtirilgan ID-57663348 “European Perspectives in Dialogue: Central Asia and Western Research – Muloqotda Yevropa istiqbollari: Markaziy Osiyo va g‘arb tadqiqotlari” mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (Buxoro davlat universitetining 2025-yil 28-fevraldagi 06/1358-son ma’lumotnomasi). Natijada har ikkala tildagi supersegment fonetik vositalar badiiy va so‘zlashuv nutqi tahlili, ikkala tildagi bunday birliklarining uslubiy farqlari va mazkur tillar foydalanuvchilari uchun ahamiyati tahlili ochib berilgan, mavzu doirasida qiyosiy tahlil qilish hamda ularning nutq madaniyati rivojiga ta’sirini ko‘rsatib berishga imkon bergan;

ingliz va o‘zbek tillarida pauza delimitativ va differensial funksiyalarni bajarib, noverbal informatsion vosita sifatida tovushning tugashi va artikulyatsiyaning to‘xtashi, situativ, ijtimoiy va psixologik omillarga bog‘liq ravishda o‘zgarishi barobarida nutqning ta’sirchanligini oshirishdagi samaradorligi asoslangan xulosa va natijalardan Buxoro viloyat teleradiokompaniyasida “Intervyu plyus”, “Assalom, Buxoro” ko‘rsatuvlari ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (Buxoro viloyati teleradiokompaniyasining 2025-yil 4-fevraldagi 01-09-57-son ma’lumotnomasi). Natijada qiyoslanayotgan tillarda mavjud supersegment fonetik vositalar orqali kelib chiqadigan uslubiy ma’nolarning nutqqa ta’siri hamda ularda nutqiy ko‘nikmalar hosil qilishdagi roli teleko‘rsatuvlar uchun tayyorlangan materiallarning mazmuni mukammallashuvi, ilmiy dalillarga boy bo‘lishi, ko‘rsatuvning ilmiy-ommabopligi ta’minlanishiga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 12 ta, jumladan, 5 ta xalqaro va 7 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 23 ta ilmiy ish chop etilgan, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 11 ta maqola, shulardan, 5 ta respublika hamda 6 ta xorijiy jurnallarda e’lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovadan iborat, umumiy hajmi 146 sahifani tashkil etadi.

DISSERTASIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, natijalarni amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Supersegment fonetik vositalar tadqiqi va uning nazariy asoslari”** deb nomlangan bo‘lib, u uch fasldan tashkil topgan. Bobning “*Fonostilistika va fonetik vositalar xususida*” deb nomlangan birinchi faslida fonostilistikaning shakllanishiga zamin yaratgan sohalar fonetika va fonologiya, uning tarkibiy qismlari o‘rtasidagi munosabatlar o‘rganilgan, stilistikaga oid turli qarashlar, bu boradagi muammolar tahlilga tortilgan hamda ushbu masalalarga munosabat bildirilgan.

Tilshunoslikning til uslublarini tadqiq etuvchi, tilning leksik-frazeologik, fonetik, morfologik, so‘z yasalish va sintaktik sathlarda sinxron va diaxron nuqtayi nazardan funksional qatlamlanishining mohiyati va o‘ziga xosliklarini o‘rganuvchi, adabiy tilni turli lisoniy vaziyatlarda, yozma adabiyotning xilma-xil tur va janrlarida, ijtimoiy hayotning turli sohalarida qo‘llash me’yorlari va usullarini tavsiflovchi tarmog‘i[7] stilistika fani hisoblanadi. Stilistika matnning uslubi va nutqiy xususiyatlari orqali matndagi ma’noni o‘zgartirishi, tasavvur va hislarga ta’sir o‘tkazishi mumkin bo‘lgan usullarni o‘rganadi. Bu usullar matndagi ma’noni kuchaytirish, me’yoriylikni ta’minlash, tasvirlash, ta’kidlash, kinoya qilish kabilarni o‘z ichiga oladi.

Rus olimi V.V.Vinogradov tadqiqotlarida stilistikaning ikki turini ajratadi:

1. Nutq stilistikasi. Bu turga so‘zlashuv, rasmiy, ilmiy, publitsistik va badiiy uslub kabilar kiradi;

2. Lingvistik stilistika. U quyidagi turlarga bo‘linadi: a) fonetik stilistika; b) leksik stilistika; c) grammatik stilistika[8]. Ushbu tadqiqot ishi uslubiyatning bir tarmog‘i – lingvistik stilistikaning tarkibiy qismi bo‘lgan fonetik stilistika bilan uzviy bog‘liq. Shuni ta’kidlash lozimki, fonetika tabiatdagi har qanday tovushlarni emas, balki inson nutq apparatida hosil bo‘luvchi, ijtimoiy qiymatga ega bo‘lgan nutq tovushlarini o‘rganadi[9].

Fonetika nutqning akustik-artikulyatsion, segment va supersegment xususiyatlarini leksik-semantik hamda grammatik qonuniyatlar bilan yaxlitlikda tadqiq etuvchi makrosath bo‘lib, adabiy talaffuz, imlo me’yorlari va orfografik tizimning poydevorini belgilaydi. Fonologiya esa tovushning fizik tabiatidan ko‘ra uning yuqori sathlarda bajaradigan sotsial-semantik va ma’no farqlash vazifalarini strukturaviy-funksional jihatdan o‘rganadi. Shunga ko‘ra, fonetik material til tizimidagi qarama-qarshiliklarni aniqlashda boshlang‘ich baza bo‘lib xizmat qiladi hamda adabiy til va dialektlar o‘rtasidagi farqlarni ochiqlashda muhim metodologik ahamiyat kasb etadi.

---

[7] https://uzpedia.uz/pedia/uslubshunoslik

[8] Xalilova M. O‘zbek tili stilistikasi asoslari. – Farg‘ona, 2009. – B. 46-49.

[9] Islomov D. Sh. Fonetika, fonostilistika, fonetik vositalar turlari va ularning tilshunoslikdagi o‘rni xususida // O‘zbekistonda ilmiy tadqiqotlar: davriy anjumanlar. 7-qism. – Toshkent, 2022. – B. 9-10.

Fonostilistika fonetika, fonologiya hamda uslubiyat kesishuvida yuzaga kelgan lingvistik soha bo‘lib, unda fonemaning nutqiy bosqichda tovush orqali turli uslubiy ma’nolarni ifodalashi, ya’ni nutq tovushlarining uslubiy qiymat kasb etishi va stilistikaning tarkibiy komponentiga aylanishi, shuningdek, fonetik vositalarning konnotatsiyasi o‘rganilishi bilan ahamiyatli. Fonostilistika nutqning maqsadi, mazmuni, sharoiti va u yoki bu suhbat muhitiga ko‘ra qanday vazifa bajarishini va stilistik imkoniyatlarini fonetik darajada o‘rganadi[10]. Diskursda fonetik vositalar (tovush, ritm, ohang, urg‘u, suhbat tempi, fonika (suhbat kayfiyati)ni, nutq tovushlaridan o‘rinli va unumli foydalanishni o‘rganish fonostilistikaning asosiy vazifalari hisoblanadi. Suhbat mazmuni va ularning badiiy subtekstdagi uslubiy ma’nosi bois fonostilistikada badiiy asarlarni fonetik o‘rganishga katta e’tibor beriladi.

Bobning ikkinchi fasli *“Supersegment vositalar doirasidagi zaruriy tushunchalar”* deb nomlanib, ishning mohiyatini bevosita ochib beradigan atamalar – konnotatsiya, prosodiyaga oid izohlar berilib, intonatsiya va ohangning o‘xshash hamda farqli jihatlari, shuningdek, ton kabi atamalar tahlil qilindi.

So‘zning ma’nosi faqatgina denotatsiya bilan cheklanmaydi, ya’ni u faqat narsa, tushuncha yoki hodisani atash bilan chegaralanmaydi. So‘zlar, ko‘pincha, konnotativ, ya’ni qo‘shimcha – emotsional, baholovchi yoki uslubiy ma’noni ham o‘z ichiga oladi[11]. Ilmiy adabiyotlarda “til birligining konnotativ ma’no ifodasi, uning atrofini o‘rab olgan qo‘shimcha semalardir[12]” degan ta’riflarga duch kelamiz. O.S. Axmanova qayd etishicha, so‘z semantikasida ikki turdagi konnotatsiya mavjud**.** Ulardan birinchisi – ingerent konnotatsiya bo‘lib, bu so‘zning matn doirasidan tashqarida ham mavjud bo‘la oladigan, unga xos bo‘lgan barqaror qo‘shimcha ma’noni anglatadi. Ikkinchisi esa, adgerent konnotatsiya bo‘lib, u faqat ma’lum bir kontekstda, ya’ni konkret matn yoki nutq vaziyatida shakllanadigan konnotativ ma’noni bildiradi[13]. Demak, fonetik vositalar konnotativ ma’noni tashuvchi va uni tinglovchiga yetkazuvchi asosiy stilistik vositalar hisoblanadi.

Prosodiyaga quyidagi fonetik xususiyatlar kiradi: tovushning davomiyligi (uzunligi), balandligi (intonatsion ohang), intensivligi (kuchliligi), undoshlarning unli tovushlarga qanday yaqinlashuvi (birikishi), nafas chiqarilishi (aspiratsiya), yumshatish (palatalizatsiya), hiqildoq orqali talaffuz (glottalizatsiya) va b. Shu bois prosodiya segment fonetikasidan farqlanadi va supersegment hodisa sifatida qaraladi.

Ta’kidlash joizki, ilgari fonetika sohasidagi ayrim tadqiqotlarda “prosodiya” va “intonatsiya” tushunchalari, ko‘pincha, sinonim sifatida talqin qilingan bo‘lib, ular tilning supersegment vositalariga oid umumiy funksional tizimni anglatgan. Zamonaviy lingvistik tadqiqotlarda esa bu ikki tushuncha o‘rtasidagi chegara aniqroq belgilangan bo‘lib, yuqorida ta’kidlanganidek, intonatsiya faqat fraza darajasida yuzaga chiqadigan supersegment xususiyatlarni ifodalasa, prosodiya

[10] Nabiyeva D., Zokirova H. O‘zbek tili fonetikasi. – O‘quv qo‘llanma. – Andijon, 2016. – B. 45.

[11] Мамадалиева М. Ўзбек тилида номинатив бирликларнинг коннотатив аспекти: Филол.фан.ном… дисс...автореф. – Тошкент, 1998. – 29 б.

[12] Бозоров О. Ўзбек тилида даражаланиш. – Тошкент: Фан, 1995. – Б. 76.; Мамалалиева М. Ўзбек тилида номинатив бирликларнинг коннотатив аспекти: Филол.фан.ном… дисс...автореф. – Тошкент, 1998. – Б. 15.

[13] Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – Москва: Сов.энциклопедия, 1960. – С. 310.

esa, til tizimidagi barcha birliklar – bo‘g‘in, so‘z, sintagma va fraza darajalarida namoyon bo‘ladigan prosodik omillar majmuyini o‘z ichiga oladi[14].

Garchi rus va ingliz manbaalarida ohang hamda intonatsiya invariant sanalmasa-da, o‘zbek tilida bu atamalarni takror-takror ma’nodosh sifatida uchratish mumkin. Biroq intonatsiya va ohang atamalari fonetik tizimda o‘xshash jihatlarga ega bo‘lsa-da, ular har xil darajalarda turli funksiyalarni bajaradi. Intonatsiya ko‘proq nutqning makro darajasida (gap va fraza) ishlatilsa, ohang – mikro darajada, ya’ni so‘z va tovush darajasida ahamiyatga ega. Zotan, ular alohida tushunchalar bo‘lib, o‘zaro sinonim bo‘lishdan ko‘ra, bir-birini to‘ldiradigan elementlar sifatida qaralishi lozim. Har bir intonatsiyada ohang mavjud, lekin har bir ohang intonatsiya emas, deb hisoblaymiz.

Takidlash joizki, agar ohang baland-pastligi yoki ovoz tembriga ishora qilsa, bu holda ton atamasi ham ishlatiladi. Ovoz balandligi bo‘g‘inlar yoki butun so‘zlar darajasida boshqarilsa va shu orqali butunlay boshqacha ma’nolar yuzaga kelsa, bu holat ton hisoblanadi. Biroq, agar ovoz balandligi so‘zlar kombinatsiyasi (iboralar yoki gaplar) darajasida boshqarilib, bu orqali turli muloqot vazifalari (masalan, xabarmi yoki savolmi) ifodalansa, bu holat intonatsiya deb ataladi[15].

Bobning uchunchi fasli *“Supersegment fonetik vositalarning tavsifi va o‘rganilishi”* deb nomlanib, unda intonatsiya, pauza va urg‘uga doir lingvistik yondashuvlar hamda ular borasida ilmiy-nazariy asoslar bayon etilgan. Intonatsiya orqali matnning ekspressiv ta’sirchanligi va universal lingvistik yaxlitligini ta’minlasa, nutqiy jarayondagi akustik-fiziologik to‘xtash sanalgan pauza nafaqat noverbal uslubiy figura, balki fikrni mantiqiy bo‘laklarga ajratuvchi va unga situativ-psixologik joziba beruvchi semantik vosita vazifasini bajaradi. Urg‘u esa so‘z va gapning prosodik qolipini qurish barobarida, ingliz va o‘zbek tillarining tipologik xususiyatlaridan kelib chiqib, mantiqiy ta’kid, emotsional-ekspressiv ma’no hamda muallifning individual uslubini voqelantiruvchi yetakchi fonostilistik omil bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqotning ikkinchi bobi “**Intonatsiya va uning komponentlariga xos uslubiy xususiyatlar**” deb nomlangan. U ichki uch fasldan tashkil topgan bo‘lib, mazkur bobda intonatsiya va uning komponenti pauzaga xos uslubiy xususiyatlar tahlil qilindi. Bobning *“So‘zlashuv va badiiy nutqda intonatsiyaning uslubiy xususiyatlari*” deb nomlangan birinchi faslida quyidagilar berilgan:

Badiiy adabiyotda, ayniqsa, poeziya janrida turoqlarni talab darajasida o‘qish uchun intonatsiya muhim uslubiy ahamiyat kasb etadi. Chunki she’riyatda intonatsiyasiz o‘qish fikrni asossiz, to‘mtoq bo‘lishiga sabab bo‘ladi [16] . Intonatsiyada tasdiq va inkor, buyruq va so‘roq, sanash va ta’kidning mavjudligi emotsional ta’sirchanlikni ta’minlaydi. Nutq qaratilgan obyektga bo‘lgan so‘zlovchining munosabati, hissiyoti so‘zdagi intonatsiyada namoyon bo‘ladi. Nutq jarayonida intonatsiya, asosan, ikki vazifani bajaradi: 1. Nutq oqimini ma’noli bo‘laklarga ajratish va shu asosida mazmun ifodalash; 2. Nutqda emotsional ottenka ifoda etish.

[14] https://ru.wikipedia.org/wiki/Просодия

[15] Anderson C., Bjorkman B., Denis D., Doner J., Grant M., Sanders N., & Taniguchi A. Essentials of Linguistics (2nd ed.). – Toronto, Canada: eCampusOntario, 2022. – P. 157.

[16] Inomxo‘jayev A., Zunnunov A. Ifodali o‘qish asoslari. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 1978. – B. 45.

Ingliz tilidagi intonatsiya ko‘rinishlarini tahlil qilishda tilshunos E.A. Antipovaning ilgari surgan nazariyasiga asoslanib, ingliz tilidagi pasayuvchi ohangning uch xili, ya’ni past pasayuvchi, baland pasayuvchi, ko‘tarilib pasayuvchi va o‘zbek tilidagi ancha past-past va baland-past ohang turlari qiyosiy tahlil qilinadi va ularning turli gaplardagi funksiyasi aniqlanadi[17].

A.G. Gvozdev so‘zlashuvdagi intonatsiya uslublarini, ayniqsa, qisqa va tezkor savollar va javoblarni, shuningdek, iltimos va buyruqlarni o‘rganishga qaratilgan tadqiqotlar olib borgan[18]. Badiiy nutq intonatsiyasining uslubiy xususiyatlari esa, asosan, adabiy stilistika va fonologiya nuqtayi nazaridan o‘rganiladi. R. Yakobson badiiy nutqda intonatsiyaning estetik rolini o‘rganib, uning fonetik va sintaktik xususiyatlarini aniqlagan[19]. Olimlarning nazariyasiga tayanib so‘zlashuv va badiiy nuqtda intonatsiyaning uslubiy xususiyatlarini quyidagi jadval asosida yoritamiz (qarang: 2.1-jadval).

2.1-jadval

So‘zlashuv va badiiy nutqda intonatsiyaning uslubiy xususiyatlari va ularning o‘zaro farqlari

Xususiyatlar	So‘zlashuv nutqi	Badiiy nutq
Intonatsiyaning maqsadi	To‘g‘ridan to‘g‘ri ma’lumot olish, fikr almashish, muloqot	Estetik ta’sir, san’atkorlik, tasvir yaratish, hissiyotlarni obrazli ifodalash
Intonatsiyaning vazifasi	Kommunikativ vazifalar (savol, buyruq, iltimos)	Muayyan ma’no yaratish, hissiyotlarni kuchaytirish, badiiy tasvirlar
Urg‘u va ohang	Savol va buyruqlarda o‘zgarish, aniqlik ta’minlanadi	Inson tasavvur olamini tasvirlar asosida boyitish, o‘ziga xos estetik ohang yaratish
Temp va ritm	Tez va o‘zgaruvchan	Sekin yoki tez, lekin ritmik
Pauzalar	Bevosita nutqda to‘xtalishlar	Hissiy va semantik pauzalar
Takror va parallelizm	Kamroq ishlatiladi	Uslubiy vosita sifatida keng qo‘llaniladi
Emotsional ta’sir	Yengil emotsional ta’sir (iltijoli savollar, iltimoslar)	Chuqur emotsional ta’sir (badiiy obrazlar, dramatik holatlar)

So‘zlashuv nutqi oddiy muloqot, fikr almashish va hissiyotlarni bevosita ifodalash uchun xizmat qiladi. Badiiy nutqda esa intonatsiya asarlarning estetik shakllarini yaratishda, ma’no va tasvirlarni oshirishda yordam beradi. Intonatsiya ikki turdagi nutqda ham ma’lumotni samarali va aniq yetkazish uchun muhim vosita hisoblansa-da, ularning ishlatilishi kontekstga bog‘liq holda farq qiladi.

Bobning ikkinchi fasli *“Intonatsiya komponentlarining o‘ziga xos badiiy uslubiyiyati”* deb nomlandi va unda intonatsiyaning tarkibiy qismlariga izohlar berildi, Kazuo Ishiguroning “Never let me go” hamda Tog‘ay Murodning “Otamdan qolgan dalalar” romanlaridan olingan misollar asosida mavzu mohiyati tahlil qilindi.

[17] Антипова Е.Я., Каневская С.Л., Пигулевская Г.А. Пособие по английской интонации. – Москва, 1985. – 224 с.

[18] Гвоздев А.Н. Развитие мелодико-интонационной стороны речи при нормальном и нарушенном онтогенезе. – Москва, 1965. – С. 69.

[19] Jacobson R. Linguistics and Poetics. – Cambridge, MA: MIT Press, 1960. – P. 126.

Intonatsiya tilshunoslikda muhim lisoniy omil bo‘lib, u nutqda sintaktik birliklarning turli ma’nolarda ifodalanishiga xizmat qiladi. U quyidagi asosiy komponentlardan tashkil topadi: nutq melodikasi (tovush paychalari tebranish chastotasi va ton harakati), nutq tempi (artikulyatsiya tezligi va davriyligi), tovush balandligi (artikulyatsiya kuchi va intensivligi), pauza (fonatsiyaning to‘xtashi), urg‘u tizimi (barcha turlari) hamda ovoz tembri[20].

M.I. Matusevich melodikani intonatsiyaning yetakchi elementi deb hisoblaydi. Olimning fikricha, melodika semantika va sintaksis bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, har bir tilning o‘ziga xos melodik tuzilishini shakllantiradi[21]. Olimning yuqoridagi tasniflaridan xulosa chiqargan holda, ko‘tariluvchi ohang savollarda hayratni ifodalash uchun ishlatilishini bilib olamiz. Masalan, *What do you think she was doing in there?* (Never let me go, 124-p.) – *Sen hali ham shu yerda yuribsanmi?* (Otamdan qolgan dalalar, 134-b.)

Pasayuvchi ohang buyruq, his-hayajon gaplarda fikr qat’iyligi va o‘ziga xos hissiyot yuklaydi. Masalan, *It was the only thing left to do.* (Never let me go, 188-p.) –*Dala – otamdan qolgan meros.* (Otamdan qolgan dalalar, 215-b.)

Aralash ohang ikki ma’noli gaplar, muloyim rad javoblarini ifodalashda ishlatiladi; ohang pasayib, keyin yana ko‘tarilishi mumkin, chunki gap shubhali yoki umid bilan aytilayotgan bo‘lishi mumkin.Masalan, *Forget about it.* (Never let me go, 181-p.) – *Yerni sug‘or!* (Otamdan qolgan dalalar, 98-b.)

Tekis ohang monolog, neytral bayonotlarda hissiyot yo‘qligi, asosan, tasviriy bayonot berilgaligini ko‘rsatish uchun ishlatiladi. Jumladan, *Maybe it’s all just some stupid rumour.* (Never let me go, 209-p.) – *Balki hammasi o‘tib ketar...* (Otamdan qolgan dalalar, 167-b.); *We all grew up at Hailsham, and we knew each other from childhood.* (Never let me go, 15-p.) – *Kun botib borardi. Dala jimjit. Osmonda yakkam-dukkam yulduzlar paydo bo‘la boshladi.* (Otamdan qolgan dalalar, 243-b.)

N.I. Jinkin fikricha, “Intonatsiyani asosiy dinamik komponent – urg‘u va uning cho‘ziqligi – pauza orqali tavsiflash muhim. Chunki aynan ushbu elementlarning o‘zgarishi jumlaning mazmunini tubdan o‘zgartirishi yoki hatto uni ma’nosiz holga keltirishi mumkin[22]”. Intonatsiyaning muhim tarkibiy qismlari ritm, pauza, tembr va nutq sur’ati nutq jarayonida o‘ziga xos vazifalarni bajaradi. Jumladan, tembr ovozning ohangini aniqlaydi. U oddiy yoki hissiy tusga ega bo‘lib, gapning ma’nosini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi: *“Yashaymiz, bolam! Yashaymiz!” Otamning ovozi jaranglab ketdi. U shunday ishonch bilan gapirdiki, yuragimda qandaydir iliq bir tuyg‘u paydo bo‘ldi.* (Otamdan qolgan dalalar, 263-b.) Mazkur misolda baland, ishonchli va jarangdor ovoz qahramonning hayajonini, umid va qat’iyatini ifodalangan. Bu yerda tembr uslubiy vosita orqali qahramonning ichki kayfiyati va nutqning ta’sirchanligi oshirilgan.

“It had never occurred to me that our lives, which had been so closely interwoven, could unravel with such speed.” Kathy’s voice was calm, but beneath it, there was an unmistakable sorrow. (Never let me go, 144-p.) Keltirilgan misolda

[20] Nabiyeva D.A., Zokirova H.R. O‘zbek tili fonetikas. O‘quv qo‘llanma. – Andijon, 2016. – B.17.

[21] Матусевич М.И. Современный русский язык. Фонетика. – Москва: Просвещение, 1976. – 242 с.

[22] Жинкин Н.И. Взаимоотношение компонентов интонации в речи и в музыке. – Сб. Проблемы структурной лингвистики. – Москва: Наука, 1984. – С. 137-148.

asar qahramoni sokin ohangda gapirayotgan bo‘lsa ham, uning nutqi ostida ichki alam va qayg‘u sezilib turadi. Uning ovozidagi tembr xotiralar bilan bog‘liq hissiyotlarni aks ettirib, o‘quvchiga uning ichki kechinmalarini yetkazishga xizmat qiladi.

Ritm mustaqil hodisa emas, balki intonatsiyaning boshqa komponentlari bilan birgalikda faoliyat yuritadi. U gap yoki so‘z tarkibidagi urg‘uli va urg‘usiz bo‘g‘inlarning tartibli almashinuviga asoslanadi. Ritm qahramonlarning hissiy kechinmalari, nostalgiya, taranglik va tushkunlikni ifodalashda ishlatilib, qisqa va tez gaplar taranglikni oshiradi, uzoq va ravon gaplar esa, xotiralar va mulohazalar hisini kuchaytiradi. Masalan, *Yerni itarib yuborgudek bo‘lib turgan osmon ham g‘azabga to‘ldi. Qor uchqunlari aylana boshladi. Qoraygan dalalar jimjit edi.* (Otamdan qolgan dalalar, 163-b.) Yuqorida qisqa, sodda gaplar orqali tabiat va qahramonlarning ichki holatidagi taranglik ifodalangan.

We sat there. We waited. We watched the trees move in the wind. And we said nothing. (Never let me go, 189-p.) Sezilarli ravishda sekin ritm qahramonlarning ichki bo‘shlig‘ini aks ettiradi.

Nutq sur’ati (temp) esa, odatda, sekin, oddiy yoki tez bo‘lishi mumkin va ritm bilan birgalikda matnning semantik muhim qismlarini ajratish, shuningdek, nutqning hissiy jihatini kuchaytirishda ishtirok etadi. Temp va ritm ajralmas hodisalardiki, ular birgalikda gapiruvchining hissiyotlarini ifodalash hamda gap va ma’no guruhlarining turli qismlarining semantik ahamiyatini ta’kidlash uchun xizmat qiladi. Bunda tez temp – hayajon, qo‘rquv va keskinlikni ifodalashda, sekin temp esa, g‘amginlik, chuqur fikrlash va tabiat tasvirida, shuningdek, tez va sekin tempning almashinishi dramatik effektni kuchaytirishda ishlatiladi.

Chopdi! Yana chopdi! Oyoqlari bo‘shashib ketdi. Lekin to‘xtamadi. Oldinda dalalar. Yana dalalar. (Otamdan qolgan dalalar, 89-b.) Bu yerda qisqa jumlalar va takrorlar orqali ritm tezlashib, qahramonning vahima va umidsizlik ichida qochishini kuchaytiradi.

Tommy was yelling now, his fists clenched. “It’s not fair, Kathy! It’s just not fair!” Then, suddenly, his voice softened. “But maybe it never was. (Never let me go, 53-p.) Dastlab tez temp orqali qahramonning g‘azabi va hissiy portlashi ifodalanadi, keyin esa, sekinalashgan temp orqali tushkunlik va taslim bo‘lish holati aks ettiriladi.

Intonatsiyaning yana bir tarkibiy qismi bo‘lgan pauza delimitativ va differensial funksiyalarni bajarishi hamda bog‘lovchi unsurlar sifatida xizmat qilishi kabi ma’lumotlar, ushbu bobning *“Pauzaning fonostilistik imkoniyatlari”* deb nomlangan uchinchi faslida berilgan. Ushbu faslda berigan jami tahlillar quyidagi jadvalda birlashtirilgan (qarang: 2.3-jadval).

2.3-jadval

Pauza turlari va ularga xos xususiyatlar

Pauza turi	**Pauza turiga xos xususiyatlar**	**Kazuo Ishiguro “Never let me go” asaridan misollar:**	**Tog‘ay Murod “Otamdan qolgan dalalar” asaridan misollar:**
